

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IPAKCHILIKNING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLI

Zokirova Madinabonu Xomidjon qizi

Marxamat tuman hokimligining bosh mutaxassisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimiz yengil sanoatinig eng yaxshi tarmoqlarida biri ipakchilik, uning yurtimiz tarixidagi o'рни hamda isqitbollari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ipakchilik sanoati, tarmoq, pilla, qurt, Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Xitoy, "Pilla xolding"*

Ipakchilik sanoati - yengil sanoat tarmoqlaridan biri. Asosan, tabiiy va sun'iy ipak tolasi, yigirilgan ipak, sintetik hamda har xil tabiiy va sun'iy tolalar birikmasidan ipak (shoyi) gazlamalar to'qib chiqaradi. Pilla chuvish (tortish), uning losidan ipak yigirish va to'qilgan gazlamalarni pardozlash ham ipakchilik sanoatiga kiradi.

O'zbekistonda ipakchilik tarmogi teran tarixiy ildizlar va an'analarga ega. Ipak qurti boqish va uning pillasidan tola olish, ipak gazmollar to'qish dastlab Xitoyda vujudga kelgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ipak qurti boqish 4-asrda Xitoydan Buyuk ipak yo'li orqali hozirgi O'zbekiston hududiga tarqalgan. Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan kabi shaharlarda ishlab chiqarilgan turli-tuman shoyi gazlamalar mashhur bo'lgan. Shoyi gazmollar Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga chiqarilgan.

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin respublika hukumati ipakchilik sanoatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berdi. An'analar va ming yillik tajribalar negizida O'zbekistonda zamonaviy yangi ipakchilik industriasini yaratish yo'li belgilandi. 1993-yildan pilla yetishtirish davlat buyurtmasidan chiqarilib, uni xarid qilish kelishilgan narxlar asosida olib boriladigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi 1 - Prezidenti I. A. Karimovning 1998-yil 30 martdagi "Respublikada pil-lachilik sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida" Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3 apreldagi "Respublika pillachilik sohasini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra mustaqil "O'zbek ipagi" uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibiga ipakli va aralash gazlamalar ishlab chiqaradigan shoyi to'qish korxonalari, shuningdek, tabiiy shoyi i. ch. va qayta ishlash bo'yicha Markaziy ilmiy tadqiqot institutini ("Shoyi" tadqiqot instituti, Marg'ilon) o'z ichiga oladigan "Shoyi" aksiyadorlik kompaniyasi hamda pilla xom ashyosi, ipak kalava ishlab chiqaradigan pillakashlik korxonalari, ipak qurti tayyorlanadigan zavodlar, ipak qurti naslchilik xo'jaliklari, xom pillani qabul qilish va dastlabki ishlov berish korxonalari, tutchilik xo'jaliklari, O'zbekiston ipakchilik ilmiy tadqiqot institutini o'z ichiga oladigan "Pilla xolding" xolding kompaniyasi kiradi.

Pilla xom ashyosini respublikaning o'zida qayta ishlanishini ta'minlash maqsadlarida 2000-yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan pilla xom ashyosi, ipak chiqindilari va ipak ipni res-publikadan chetga chiqarishga chek qo'yildi.

O'zbekiston — ipakchilik sohasida boy tajriba, yuksak salohiyatga ega mamlakat. YUNESKO tomonidan o'zbek shoyi matolari — atlas va adras tayyorlashning qadimiy texnologiyasi nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish ro'yxatiga kiritilgani buning amaliy tasdig'i, dunyo hamjamiyatining yuksak e'tirofidir.

Ipakchilik sohasida etakchi hisoblangan Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar investorlari bugun O'zbekistonga ishonchli hamkor sifatida qaramoqda. Buning asosiy sababi, pillachilik qisqa vaqt ichida mavsumiy tarmoqdan doimiyga aylantirilib, qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilganidir.

Gap shundaki, yurtimizda tarkibida kamida 4-5 ta korxonani birlashtirgan pillachilik-klasterlari yaratish sa'y-harakatlari allaqachon boshlab yuborildi. Ularda ipak qurti ozuqasini etishtirishdan tortib, pilla olish, ipak yigirish, mato to'qish va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqich qamrab olinadi.

Shu bilan birga, foydalanishga topshirilayotgan pillachilik majmualari qoshida parrandachilik, asalarichilik, chorvachilik hamda quyunchilikni rivojlantirish, ikkilamchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish imkoniyati paydo bo'layapti.

Mamlakatimizda pillachilikni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor, yaratilgan qator imtiyoz va imkoniyatlar o'z-o'zidan mazkur yo'nalishda faoliyatini olib borish istagidagi korxonalar sonining ortishiga zamin yaratdi. 2017 yilning sentyabr` oyida O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida yigirmanchi davlat sifatida Xalqaro ipakchilik Kengashiga (ISC) a'zo bo'lgach, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi qoshida 13 ta hududiy, 144 ta tuman "Agropilla" MCHJlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ayni paytda tizimda 11 ta ipak qurti urug'i tayyorlovchi, 71 ta klaster usulida pillani etishtirish va qayta ishlash asnosida ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud. Jami 761 ming nafar, shundan, 24 ming 440 nafari doimiy va 736 ming 567 nafari mavsumiy ish o'rinlari yaratilgan.

Oxirgi ikki yilda yangi loyihalarning amalga oshirilishi, sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining rivojlantirilishi natijasida 10 ta ipak mato, ipak gilam va tayyor ipakli mahsulotlar, 3 ta ipak va jun aralashmalaridan qo'lda gilam to'quvchi yirik korxonalar hamda 1 ta ipak qurti g'umbagidan oqsil ishlab chiqaruvchi quvvat ishga tushirildi. Ipak qurti g'umbagidan yog' ishlab chiqarish, uning asosida esa qimmatbaho dorivor va farmakologik vositalar, kosmetologiya yo'nalishidagi mahsulotlar, pilla sovuni, shuningdek, tut bargidan choy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

"Inter Silk Pro" MCHJda esa hozirgi kunda ipak qurti g'umbagidan xitin va xitozan oqsillari ham tayyorlanayapti. Bu O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti bilan birgalikda yo'lga qo'yilgan mazkur loyiha o'zini oqlayotganini ko'rsatadi. 2020 yil I-II mavsumlarda 20 610,9 tonna (101,47 foiz), takroriy III-IV masumlarda 872,8 tonna (100,55 foiz) pilla xomashyosi etishtirilishida mazkur korxonaning hissasi katta.

Shuningdek, joriy yilda ipak qurtining mahalliy zot va duragaylarini ko'paytirish maqsadida Samarqand va Farg'ona viloyatlarida superelita va elita urug'larini tayyorlaydigan 2 ta naslchilik korxonasi ishga tushdi. Ular tomonidan shu yilning o'zida 2

447 ta dastlabki tuxum quymalari, 721 quti superelita va 1 800 quti elita urug'lari tayyorlandi. Uyushma tarkibidagi qayta ishlash korxonalarini pilla xomashyosi bilan muntazam ta'minlash natijasida ularning mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 2017 yildagi 54 foizlik daraja bugunga kelib 94 foizga etdi. Sohaning eksport hajmi esa 2020 yil yakunida 2017 yilga nisbatan qariyb 4 barobarga oshishi kutilmoqda. Kelgusida pillani qayta ishlash korxonalari negizida chuqur qayta ishlash va boshqa yo'nalishlar bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Sohani rivojlantirishda shubhasiz, xalqaro sherikchilik aloqalarni mustahkamlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida pillachilik tarmog'iga jami 175,4 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilishi natijasida 40 ta pillani qayta ishlash korxonasi modernizatsiya qilinib, 2019-2020 yillarda 14 ta yangi pilla qayta ishlash, 4 ta ipak qurti urug'i, 1 ta tut bargidan choy ishlab chiqarish korxonalari barpo etildi. 2020 yilda sohaga jami 15,6 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 6,34 million dollari korxonalarining o'z mablag'i, 6,04 million dollari tijorat bank kreditlari hamda 3,23 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tashkil etadi.

Bundan tashqari, ipakchilikni rivojlantirish bo'yicha bir qancha xalqaro hamkorlik kelishulariga ham erishilgan. 2018 yilning 4—13 iyul` kunlari “O'zbekipaksanoat” uyushmasi delegatsiyasi Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Vengriya, Avstriya, Italiya, Bel`giya va Turkiya davlatlarida bo'lib, xalqaro tashkilotlar, ipakchilik sohasida faoliyat yuritayotgan hamda texnologik asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi etakchi kompaniyalar vakillari bilan tashkil etilgan uchrashuvlar davomida qator hamkorlik hujjatlarini imzolashga muvaffaq bo'ldi. Xususan, delegatlar YUNIDO (BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti)ning bosh direktori janob Li Yong bilan uchrashib, O'zbekistonda pillachilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha OFID (Neftni eksport qiluvchi davlatlar — OPEKning sanoatni rivojlantirish fondi) va FAO (BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq ovqat tashkiloti) bilan birgalikda amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha muzokaralar olib bordi. To'qimachilik sohasida asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoning etakchi texnologik kompaniyalari — “Picanol” va “Vandewiele” bilan tuzilgan strategik sheriklik shartnomalariga ko'ra, yurtimizda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, ipakchilik sohasi xodimlari malakasini oshirishga yo'naltirilgan servis va o'quv markazini tashkil etish rejalashtirilgan.

Sohada amalga oshirilishi ko'zlangan bunday xalqaro hamkorliklar hali talaygina. Ularning bari yagona maqsad — O'zbekistonda pillachilik va ipakchilik tarmog'ini rivojlantirish, jahon bozorida ipak mahsulotlarimizga bo'lgan talabni oshirish hamda milliy matolarimizning dunyo miqyosidagi o'rni va nufuzini yanada yuksaltirishga qaratilgan.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston ipak ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Xitoy va Hindistondan keyin dunyoda uchinchi o'rinni egallaydi. Shu jihatdan ipak valyuta tushumlarining ishonchli manbai hisoblanadi. Sohadan olinayotgan hosilning 70 foizi xomashyo, quritilgan pilla, ipak kalava va mato ko'rinishida Hindiston, eron, Xitoy, Bangladesh, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va Rossiya kabi mamlakatlarga eksport qilinadi. Bundan

tashqari, pillachilik qishloq joylaridagi ko'plab oilalar bandligini ta'minlaydi. Shu jihatdan mazkur soha investitsiyalar uchun jozibador tarmoq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Buyuk Ipak yuli”ni tiklanish halqaro anjumanidagi O‘z.Res.Prezidenti I.A.Karimovning nutqi.
2. Abduqodirov SH. – Pillachiligimiz tarixidan lavhalar. Toshkent, «Fan», 2000 y.,
3. K.M.Rojdestvenskiy, Z.T.Toirov, A.A.SHeveleva. «Tut ipak qurti biologiyasi ». “ O‘qituvchi ” nashriyoti . Toshkent -2009 y
4. O‘zbekiston ensklopediyasi .553 bet.
5. Pillachilikning oziqa bazasini mustahkamlash va ipakchilik mahsulotlari etishtirish hajmlarini ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Toshkent 2000 yil 15 mart, Xalq so‘zi ro‘znomasi 16 mart 2000 yil.